O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

# SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JADAL JORIY ETISH UCHUN SHART-SHAROITLAR YARATISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasiga muvofiq hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo‘llash, raqamli ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta’minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

1. Quyidagilar tasdiqlansin:

a) quyidagi asosiy ustuvor yo‘nalishlarni nazarda tutuvchi 2021-2022-yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘rganish va joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi (keyingi o‘rinlarda — Dastur) 1-ilovaga muvofiq:

sun’iy intellektni qo‘llashning asosiy yo‘nalishlari va tamoyillarini, shuningdek, yaqin va uzoq istiqbolda ushbu sohani kompleks shakllantirish uchun shart-sharoitlarni belgilovchi Sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish;

iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishda yagona talablar, javobgarlik, xavfsizlik va shaffoflikni belgilovchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish;

aholi manfaatlari yo‘lida davlat xizmatlari ko‘rsatish sifatini yaxshilash, shuningdek, ma’lumotlarni qayta ishlashda davlat organlarining samaradorligini oshirish uchun sun’iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish;

foydali texnologik yechimlarni ishlab chiqish bo‘yicha fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish va ularni keyinchalik tijoratlashtirishni rag‘batlantiruvchi sun’iy intellekt sohasida innovatsion ishlanmalarning mahalliy ekotizimini yaratish;

sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llovchi dasturiy ta’minot ishlab chiquvchilariga raqamli ma’lumotlardan foydalanish uchun sharoit yaratish, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarining tegishli ma’lumotlarini tezkor raqamlashtirishni ta’minlash;

sun’iy intellekt sohasidagi ilmiy ishlar va ishlanmalarning investitsion jozibadorligini shakllantirish, shu jumladan tovarlarning (ish va xizmatlarning) ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish;

mahalliy korxonalar va mutaxassislarning sun’iy intellekt sohasidagi axborot resurslari va bilimlardan foydalanish imkoniyatini ta’minlash, shuningdek, zarur ta’lim muhitini rivojlantirish;

qo‘shma xalqaro tadqiqot faoliyatini amalga oshirish, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, respublikamizning nufuzli reytinglar va indekslarda pozitsiyasini yaxshilash maqsadida sun’iy intellekt va uni qo‘llash texnologiyalari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish;

b) quyidagi ustuvor tarmoqlar va sohalarda, shu jumladan Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlarini jalb qilgan holda Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha 2021-2022-yillarda amalga oshiriladigan tajriba-sinov loyihalar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq:

qishloq xo‘jaligi sohasida: yerni masofadan zondlash ma’lumotlari asosida tuproq va qishloq xo‘jaligi ekinlari holatini, shuningdek, qishloq xo‘jaligi texnikasi, shu jumladan kombaynlar ishini monitoring qilish jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash — Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, “O‘zbekkosmos” agentligi (J. Xodjayev, Q. Yuldashev, Sh. Qodirov);

bank sohasida: tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish va ular tomonidan tartibga solish talablari (SubTech va RegTech) bajarilishini soddalashtirish, shuningdek, bank xizmatlari ko‘rsatish sifatini tahlil qilish, foydalanuvchilarni masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) va kredit tavakkalchiliklarini baholash uchun sun’iy intellekt

texnologiyalarini qo‘llash — Markaziy bank, “O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki” AJ, AT “Aloqabank” (M. Nurmuratov, A. Mirsoatov, K. Irisbekova);

moliya sohasida: budjet xarajatlari, pensiya, ijtimoiy va sug‘urta to‘lovlari, shuningdek, nafaqa to‘lovlarini tahlil qilish va samaradorligini oshirish uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash — Moliya vazirligi (T. Ishmetov);

soliq sohasida: yuridik shaxslarning soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq to‘lovlaridagi tafovutlarni aniqlashda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash — Davlat soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev, D. Sultonov);

transport sohasida: lokomotivlarni boshqarish jarayonida ularning harakatini kuzatib borish va xavfli vaziyatlarda mashinistlarni ogohlantirishda, jamoat transporti harakatini tahlil qilish va ularning optimal yo‘nalishlarini aniqlashda, shuningdek, avtomobil harakatini va transportdagi tirbandliklarni monitoring qilishda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash — Transport vazirligi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, “Toshshahartransxizmat” AJ, Ichki ishlar vazirligi (I. Mahkamov, X. Xasilov, A. Jo‘rayev, A. Ikramov);

energetika sohasida: energiya resurslarini ishlab chiqarish va ularning iste’molini prognoz qilishda, texnologik uskunalar ishini optimallashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash — Energetika vazirligi, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ (A. Sultanov, U. Mustafoyev);

sog‘liqni saqlash sohasida: inson o‘pkasining kompyuter tomografiyasi tahlili asosida pnevmoniyani aniqlash hamda mammografiya tahlili asosida ko‘krak bezi saratoniga ilk bosqichda tashxis qo‘yish uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash — Sog‘liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev, A. Azizov);

farmatsevtika sohasida: bozorning dori vositalari va tibbiy buyumlariga bo‘lgan ehtiyojlarini tahlil qilish va prognozlashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash — Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi, “Dori-Darmon” AK, Sog‘liqni saqlash vazirligi (S. Kariyev, U. Salixbayeva, A. Azizov);

elektron hukumat sohasida: elektron davlat va moliya xizmatlarini ko‘rsatishda foydalanuvchilarni masofadan turib biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash — Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov).

2. Quyidagilarga:

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga (Sh. Sadikov) sun’iy intellekt asosidagi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish va joriy qilish uchun texnologik sharoitlarni yaratish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tashkil qilingan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasiga (A.N. Aripov) (keyingi o‘rinlarda — Muvofiqlashtirish komissiyasi) Dasturni hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish va qo‘llash bilan bog‘liq boshqa tashabbuslarni kompleks muvofiqlashtirish yuzasidan javobgarlik yuklansin.

3. Muvofiqlashtirish komissiyasi (A.N. Aripov) yetakchi xorijiy mutaxassislar va kompaniyalarni jalb qilgan holda 2021-yil 1-dekabrga qadar yaqin va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan Sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash uchun kiritsin.

4. Belgilansinki:

sun’iy intellekt sohasida ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni moliyalashtirish Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) mablag‘lari hisobidan ushbu maqsadlar uchun alohida ochiladigan hisob raqami orqali amalga oshiriladi;

sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llovchi ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni maqsadli moliyalashtirish Jamg‘armaning mablag‘lari hisobidan Muvofiqlashtirish komissiyasi ishchi organining xulosasiga ko‘ra amalga oshiriladi;

Innovatsion rivojlanish vazirligi Muvofiqlashtirish komissiyasining xulosasiga ko‘ra, davlat ilmiy dasturlari bo‘yicha ilmiy loyihalarni moliyalashtirish uchun mo‘ljallangan Davlat budjeti mablag‘lari doirasida Jamg‘armaga sun’iy intellekt sohasida ilmiy tadqiqot va innovatsion

ishlanmalarni hamda ushbu sohani rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini moliyalashtirishga mablag‘larni yo‘naltirish huquqiga ega.

5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazi hamda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti huzuridagi Intellektual-dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazi negizida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi huzuridagi Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti (keyingi o‘rinlarda — Institut) tashkil qilinsin.

Quyidagilar Institutning asosiy vazifalari etib belgilansin:

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasini har tomonlama amalga oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish hamda iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish;

sun’iy intellekt sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni olib borish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning ilmiy ekotizimini shakllantirish;

sun’iy intellekt texnologiyalari asosida boshqaruv va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha innovatsion mahsulotlarni hamda ularning modellari, algoritmlari va dasturiy ta’minotini ishlab chiqish;

sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish bo‘yicha yetakchi xorijiy innovatsion va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va qo‘shma loyihalarni amalga oshirish.

6. Belgilansinki:

Institut yuridik shaxs maqomiga ega davlat ilmiy tashkiloti bo‘lib, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazi hamda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti huzuridagi Intellektual-dasturiy tizimlar ilmiy-amaliy markazining shartnomalari va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi;

2021-yil 1-martdan boshlab Institutning joriy faoliyati, bino va inshootlardan foydalanish, xodimlar mehnatiga haq to‘lash (ilmiy xodimlardan tashqari) bo‘yicha xarajatlarni moliyalashtirish Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi;

Institut xodimlariga Fanlar akademiyasi tizimidagi ilmiy-tadqiqot muassasalarining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash miqdorlari va shartlari tatbiq etiladi;

Davlat budjetining mazkur qaror doirasida Institut faoliyatini tashkil qilish bilan bog‘liq xarajatlari 2021-yilda birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchi sifatida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi uchun ajratilgan budjet ajratmalari doirasida moliyalashtiriladi, 2022-yildan esa Davlat budjetining xarajatlar parametrlarida belgilangan tartibda nazarda tutiladi.

7. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi markaziy apparati tuzilmasida 15 ta shtat birligidan iborat bo‘lgan Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish departamenti tuzilsin.

Belgilansinki:

departament xodimlari soni mazkur qarorning 5-bandiga muvofiq qayta tashkil qilinayotgan markazlarning shtat birliklari hisobidan shakllantiriladi.

8. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, davlat organlari, tijorat banklari va yirik sanoat korxonalarining Sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma alyansni 3-ilovaga muvofiq tarkibda tashkil qilish bo‘yicha taklifi ma’qullansin.

Belgilansinki:

Qo‘shma alyans sun’iy intellekt texnologiyalarini iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida joriy qilish bo‘yicha ustuvor loyihalarni jadal va birgalikda amalga oshirish, ularni ishlab chiqish xarajatlarini optimallashtirish, ushbu sohadagi eng yaxshi tajribalarni davlat organlari va tashkilotlari o‘rtasida ommalashtirish maqsadida tashkil qilinadi;

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Qo‘shma alyansning ishchi organi hisoblanadi.

9. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Davlat statistika qo‘mitasi 2021-yil 1-sentabrga qadar O‘zbekiston Respublikasi Ochiq ma’lumotlar portali faoliyati doirasida mahalliy ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalari hamda axborot texnologiyalari sohasidagi dasturchilar va tashkilotlarga sun’iy intellekt asosidagi dasturiy ta’minotda foydalanish uchun davlat va boshqa ma’lumotlar to‘plamlarini olish imkoniyatini taqdim etuvchi raqamli ma’lumotlar platformasini yaratsin.

10. Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Adliya vazirligi hamda Markaziy bank idoralararo ishchi guruhini tashkil qilsin va eng yaxshi xorijiy tajribalar asosida 2021-yil 1-iyunga qadar Vazirlar Mahkamasiga eksperimental innovatsion tadqiqotlar doirasida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus huquqiy rejimni joriy qilishning aniq mexanizmlari to‘g‘risida, shu jumladan quyidagilarni nazarda tutuvchi takliflarni kiritsin:

tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini sun’iy intellekt texnologiyasi asosida transformatsiya qilishni moliyalashtirishga ko‘maklashish dasturini ishlab chiqish va joriy etish;

tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini sun’iy intellekt texnologiyasi asosida transformatsiya qilish natijasida ish joylarini saqlab qolish maqsadida xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlashga ketgan sarf-xarajatlarni subsidiyalash dasturini ishlab chiqish;

tadbirkorlik subyektlari uchun sun’iy intellekt yechimlarini ishlab chiqish va o‘z faoliyatida joriy qilish bo‘yicha tadqiqotlar va ishlanmalarni (R&D) rag‘batlantiruvchi choralar ko‘rish.

11. Muvofiqlashtirish komissiyaning 2021-yilda sun’iy intellekt sohasida loyihalarni amalga oshirish uchun ochiq shaklda taqdim etiladigan davlat ma’lumotlarini yaratiladigan platformada 4-ilovaga muvofiq ro‘yxat bo‘yicha joylashtirish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilinsin.

Sun’iy intellekt uchun davlat ma’lumotlarini shakllantirishga mas’ul tegishli vazirlik va idoralarning rahbarlari o‘ziga taalluqli qismlarda ma’lumotlarni o‘z vaqtida joylashtirish, shuningdek, ularning to‘liqligi, dolzarbligi hamda ishonchliligi yuzasidan shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo‘yilsin.

Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi sun’iy intellekt texnologiyalari asosida qayta ishlash uchun taqdim etiladigan raqamli davlat ma’lumotlari to‘plamlariga kirish imkoniyatini tashkil qilish hamda ularning sifati ustidan tizimli nazoratni ta’minlasin.

12. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda “O‘zstandart” agentligi bilan birgalikda bir oy muddatda sun’iy intellekt va katta hajmdagi ma’lumotlar sohasidagi xalqaro standartlarni O‘zbekiston Respublikasi davlat standartlari sifatida qabul qilish bo‘yicha ishlar jadvalini tasdiqlasin.

13. Quyidagilar:

2021/2022 o‘quv yilidan boshlab grant asosida “Sun’iy intellekt” yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash bosqichma-bosqich boshlanadigan oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar ro‘yxati 5-ilovaga muvofiq;

Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini amaliy qo‘llash bo‘yicha o‘quv kurslari va fanlarini joriy qilish ko‘zda tutilgan oliy ta’lim muassasalar ro‘yxati 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Innovatsion rivojlanish vazirligi bilan birgalikda 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab 5 va 6-ilovalarda ko‘rsatilgan har bir oliy ta’lim muassasasiga kamida bir nafar yetakchi xorijiy ekspert va olimni sun’iy intellekt va uni qo‘llash texnologiyalari sohasida o‘qitishda ishtirok etish uchun jalb qilsin.

Belgilansinki, xorijiy ekspertlar va olimlarni oliy ta’lim muassasalariga jalb qilish bilan bog‘liq xarajatlar ularning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

14. Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Moliya vazirligi 2021-yildan boshlab sun’iy intellekt sohasida stajyor-tadqiqotchilar hamda tayanch doktoranturada tahsil olish uchun har yili 5 kishilik kvotani maqsadli ajratishni ko‘zda tutsin.

15. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi “Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt” doktorantura ixtisosligini tashkil qilishni ko‘zda tutsin.

16. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, AT “Aloqabank”, “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ tomonidan “Sber” guruhi (Rossiya) bilan birgalikda sun’iy intellekt texnologiyalarini tatbiq qilish sohasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ishlari olib borilayotganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Bosh vazir maslahatchisi O.M. Umarov, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov, O. Pekos), Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abduraxmonov, A. Nazarov), AT “Aloqabank” (K. Irisbekova), “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ (A. Mirsoatov) iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari ehtiyojlaridan kelib chiqib, “Sber” guruhi (Rossiya) bilan xorijiy ilg‘or tajriba hamda eng yaxshi tajribalar asosida sun’iy intellekt texnologiyalari va boshqa dasturiy mahsulotlarni joriy etish masalalari bo‘yicha hamkorlikni faollashtirish choralarini ko‘rsin, shu jumladan:

bir oy muddatda pilot loyihalarini tezkorlik bilan va samarali amalga oshirish, mahalliy mutaxassislarni o‘qitishni tashkil qilish, shuningdek, mazkur qarorda belgilab berilgan boshqa yo‘nalishlarda hamkorlik qilish bo‘yicha birgalikda “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

sun’iy intellektni rivojlantirish hamda davlat organlari va boshqa tashkilotlar faoliyatida, shuningdek, ushbu sohada normativ-huquqiy bazani tayyorlashda maslahatchi sifatida qatnashish uchun “Sber” guruhining (Rossiya) yetakchi mutaxassislari va ekspertlari jalb qilinishini ta’minlasin.

17. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi hamda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi bilan birgalikda ommaviy axborot vositalarida mazkur qarorning mohiyati va ahamiyati haqida chiqishlar va tematik teleko‘rsatuvlar tashkil qilsin.

18. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

19. Innovatsion rivojlanish vaziri I.Yu. Abduraxmonov hamda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh.M. Sadikovlar zimmasiga mazkur qarorning bajarilishini samarali tashkil qilish bo‘yicha shaxsiy mas’uliyat yuklatilsin.

Mazkur qarorning 2, 3 va 4-ilovalarida ko‘rsatilgan vazirlik, idora va tashkilotlar Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan kelishilgan holda yigirma kun muddatda yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha “manzilli yo‘l xaritalari” (chora-tadbirlar dasturlari)ni tasdiqlasin.

Muvofiqlashtirish komissiyasi (A.N. Aripov) mazkur qarorning bajarilishini har chorakda muhokama qilish, mas’ul vazirlik, idora va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilishni ta’minlasin.

20. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchilari R.A. Gulyamov, A.A. Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2021-yil 17-fevral,
PQ-4996-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qaroriga
1-ILOVA

## 2021-2022-yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarini o‘rganish va joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmlari | Ijro muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| **I. Sun’iy intellekt sohasidagi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish** | | | | | |
| 1. | Quyidagilarni nazarda tutuvchi **Sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi**ni ishlab chiqish:<br>sun’iy intellekt sohasida ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadli davlat dasturi, strategiyani amalga oshirishning bir yillik “Yo‘l xaritasi”, ushbu sohani yillar bo‘yicha rivojlantirish ko‘rsatkichlari (indikatorlari);<br>mashina yordamida o‘qitish va sun’iy intellekt algoritmlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan raqamli ma’lumotlar ochiqligi va sifatini oshirish;<br>sun’iy intellektni mashina yordamida o‘qitish uchun katta hajmda davlat tilidagi raqamli ma’lumotlarni shakllantirish, shuningdek, davlat tilidagi nutqni tahlil va sintez qilishni qo‘llovchi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish;<br>sun’iy intellekt sohasidagi vazifalarni hal qilish uchun zamonaviy | **1**. Xorijiy ekspertlar va mutaxassislarni jalb qilgan holda strategiya loyihasini tayyorlash bo‘yicha ishchi guruhni shakllantirish.<br>**2**. Strategiyani tasdiqlashni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash.<br>**3**. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2021-yil fevral<br><br>2021-yil sentabr<br><br>2021-yil noyabr | Ijrochilar mablag‘lari | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Markaziy bank, Fanlar akademiyasi, AT “Aloqabank”, “O‘zmilliybank” AJ, vazirliklar, idoralar, ilmiy va oliy ta’lim muassasalari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | yuqori texnologik infratuzilma va apparat komplekslarini yaratish;<br>sun’iy intellekt sohasida malakali mutaxassislarni, jumladan xorijiy o‘qituvchilarni jalb qilgan holda sohaga oid oliy ta’lim muassasalarida alohida yo‘nalishlarni ochish hamda iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruv tizimlari uchun kadrlarni maqsadli o‘qitish orqali tayyorlashni tashkil etish;<br>sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va qo‘llash, raqamli ma’lumotlarni qayta ishlashning umumiy tamoyillari va me’yorlari, shuningdek, yagona standartlari va qoidalari masalalarini tartibga solishning kompleks tizimini ishlab chiqish;<br>sun’iy intellekt sohasidagi xatarlarni nazorat qilish va oldini olish tizimini takomillashtirish, shu jumladan sun’iy intellekt texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan dasturlarning xavfsiz ishlashi, yuzaga kelishi mumkin | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | bo‘lgan xatarlarning oldini olish, shuningdek, foydalaniladigan ma’lumotlarning konfidensialligini ta’minlash. | | | | |
| 2. | Sun’iy intellekt sohasidagi xalqaro standartlarni O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlari sifatida qabul qilish. | **1**. Sun’iy intellekt sohasidagi xalqaro standartlarni tahlil qilish va ularni O‘zbekiston Respublikasining davlat standartlari sifatida qabul qilish reja-jadvalini ishlab chiqish.<br>**2**. O‘zbekiston Respublikasining sun’iy intellekt sohasidagi davlat standartlarini ishlab chiqish va tatbiq etish. | 2021-yil mart<br><br>Reja-jadval asosida | Ijrochilar mablag‘lari | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, “O‘zstandart” agentligi, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| 3. | Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha maxsus huquqiy rejimni yaratish. | **1**. Ilg‘or xorijiy tajribani inobatga olgan holda maxsus huquqiy rejimni yaratish yuzasidan takliflar tayyorlash bo‘yicha idoralararo ishchi guruhini shakllantirish.<br>**2**. Maxsus huquqiy rejimni yaratishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini tayyorlash.<br>**3**. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2021-yil fevral<br><br>2021-yil aprel<br><br>2021-yil may | Ijrochilar mablag‘lari | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Adliya vazirligi, Markaziy bank, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| **II. Sun’iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruvi tizimida keng qo‘llash** | | | | | |
| 4. | Elektron hukumat va moliyaviy xizmatlar foydalanuvchilarini | **1**. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish. | 2021-yil may | - | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | masofaviy identifikatsiya qilishni joriy qilish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. | **2**. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2021-yil iyul | | rivojlantirish vazirligi, Davlat personallashtirish markazi, Adliya vazirligi, Markaziy bank |
| 5. | Ovozli biometriya va inson nutqini tanish texnologik yechimlarini joriy etish. | **1**. Loyihani amalga oshirishning moliyaviy va texnik masalalarini ishlab chiqish.<br>**2**. Ovozli biometriya yechimini AT “Aloqabank” aloqa markazi bilan integratsiyalash (tajriba-sinov loyiha).<br>**3**. Nutqni tanish texnologik yechimini davlat tili nuqtai nazaridan mahalliylashtirish. | 2021-yil mart<br>2021-yil oktabr<br>2022-yil mart | Ijrochilar mablag‘lari, grantlar | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, AT “Aloqabank” |
| 6. | “Sber” guruhi tajribasi asosida tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslar uchun raqamli ekotizim yaratish. | **1**. AT “Aloqabank” raqamli xizmatlari tomonidan biznesni onlayn ro‘yxatdan o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish (tajriba-sinov loyiha).<br>**2**. Tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga quyidagilarni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish:<br>tijorat banklari tomonidan alohida davlat xizmatlarining ko‘rsatilishi;<br>tijorat banklari tomonidan moliyaviy bo‘lmagan maslahat xizmatlarining ko‘rsatilishi;<br>tijorat banklarining ularning raqamli ekotizimiga kiruvchi loyihalarda ulushli ishtirok etishlari imkonining yaratilishi. | 2021-yil may<br>2021-yil sentabr | Ijrochilar mablag‘lari | AT “Aloqabank”, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi<br>Markaziy bank, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Adliya vazirligi, Banklar assotsiatsiyasi, tijorat banklari |
| **III. Sun’iy intellekt sohasida innovatsion ishlanmalarning mahalliy ekotizimini yaratish** | | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 7. | Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish. | **1**. Institut faoliyatini tashkil etish va uning tarkibiy tuzilmasini tasdiqlashni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.<br>**2**. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2021-yil mart<br><br>2021-yil aprel | - | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Fanlar akademiyasi |
| 8. | Sun’iy intellekt sohasidagi startap loyihalarni qo‘shma moliyalashtirish (kraudfanding) mexanizmlarini joriy etish. | **1.** Ishchi guruh tashkil etish.<br>**2**. Ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish.<br>**3**. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va kelishish.<br>**4**. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2021-yil mart — dekabr<br><br>2022-yil fevral<br><br>2022-yil may | - | Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, vazirlik va idoralar |
| 9. | Sun’iy intellekt sohasida tayanch doktorantura va tadqiqotchi-stajyorlikka o‘qitish uchun har yili 5 nafardan maqsadli kvota ajratilishini belgilash. | **1**. “Axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt” doktorantura ixtisosligini tashkil etish.<br>**2**. 2021/2022 o‘quv yili uchun kvotalarni iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy soha ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda taqsimlash.<br>**3**. “Axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt” doktorantura ixtisosligini oliy malakali kadrlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik mutaxassisliklar nomenklaturasiga kiritish.<br>**4**. Keyingi uch yilga qabul kvotalari uchun | 2021-yil avgust<br><br>2021-yil sentabr<br><br>2021-yil oktabr<br><br>2021-yil noyabr | - | Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Oliy attestatsiya komissiyasi, Moliya vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, vazirlik va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | tavsiyalar ishlab chiqish. | | | |
| 10. | Umumta’lim maktablarida “Axborot jamiyati va unda sun’iy intellektning o‘rni” mavzusida ochiq darslar o‘tkazish. | **1**. Umumta’lim maktablarining informatika fani o‘qituvchilari uchun har ikki yilda bir marotaba onlayn tarzda o‘tkaziladigan “Axborot jamiyatida axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt” mavzusidagi malaka oshirish va qayta tayyorlash qisqa muddatli kurslari dasturini (10 soatlik) tayyorlash.<br>**2**. Umumta’lim maktablari o‘quvchilari uchun (5-sinf va undan yuqori) “Axborot jamiyati va unda sun’iy intellektning o‘rni” mavzusida bir yilda kamida ikki marotaba ochiq darslar tashkil etish. | 2021-yil noyabr<br><br>2022-yil aprel oyidan boshlab | Ajratilgan budjet mablag‘lari hisobidan | Xalq ta’lim vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Moliya vazirligi |
| 11. | Axborot texnologiyalari sohasiga ixtisoslashgan xodimlar uchun axborot texnologiyalari va sun’iy intellekt sohasida qayta tayyorlash va malaka oshirish o‘quv kurslarini tashkil etish hamda “Sun’iy intellekt” ta’lim yo‘nalishi fanlari bo‘yicha o‘qituvchilarni tayyorlash. | **1**. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tizimida “Raqamli iqtisodiyot va sun’iy intellekt” malaka oshirish o‘quv dasturini ishlab chiqish.<br>**2**. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Qayta tayyorlash va malaka oshirish markazi negizida o‘qituvchilar uchun qisqa muddatli qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish hamda | 2021-yil dekabr<br><br>2021-yil mart oyidan boshlab | Ijrochilar mablag‘lari | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Mehnat vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan tinglovchilarga oliy ta’lim muassasalari talabalariga ma’ruza o‘qish, mashg‘ulotlar o‘tish uchun sertifikatlar berish. | | | |
| **IV. Sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llovchi dasturiy ta’minot ishlab chiquvchilariga raqamli ma’lumotlardan foydalanish uchun sharoit yaratish** | | | | | |
| 12. | Raqamli davlat ma’lumotlaridan foydalanish uchun sharoit yaratish hamda ularni tezkor raqamlashtirishni ta’minlash. | 1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish: raqamlashtirilgan davlat ma’lumotlarini joylashtirish va shaxslarning ulardan foydalanishini tashkil etish; raqamlashtirilishi shart bo‘lgan davlat ma’lumotlari ro‘yxatini shakllantirish; raqamlashtirish formatiga va raqamlashtirilgan zarur davlat ma’lumotlarini joylashtirish davriga qo‘yiladigan talablarni tasdiqlash.<br>**2**. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini loyihasini kelishish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2021-yil sentabr<br><br>2021-yil dekabr | - | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Davlat statistika qo‘mitasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, “O‘zarxiv” agentligi, vazirlik va idoralar |
| 13. | Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimi ehtiyojlari uchun Sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma alyans faoliyatini tashkil etish. | **1**. Har yili Qo‘shma alyansning harakatlar rejasi va uning ishtirokchilari tarkibini tasdiqlash.<br>**2**. Qo‘shma alyans ishtirokchilarining muammoli masalalarini taqdim etish va Sun’iy intellektni | 2021 va 2022-yillar dekabr<br><br>2021 va 2022-yillar yanvar | - | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, vazirlik va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | rivojlantirish strategiyasi doirasida tegishli loyihalar ishlab chiqish hamda amalga oshirish bo‘yicha qarorlar qabul qilish.<br>**3**. Amalga oshirilgan loyihalar natijalarini eshitish va tegishli qarorlar qabul qilish.<br>**4**. Har chorakda qo‘shma alyans faoliyati yuzasidan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasi majlisini o‘tkazish. | 2021 va 2022-yillar fevral<br><br>2021-2022-yillar mobaynida | | |
| 14. | Davlat tilida sun’iy intellekt bo‘yicha izohli lug‘at ishlab chiqish. | **1**. Ilg‘or xalqaro tajribani hisobga olgan holda sun’iy intellekt sohasidagi termin va ta’riflarni shakllantirish.<br>**2**. Sun’iy intellekt bo‘yicha izohli lug‘at loyihasini ishlab chiqish va kelishish.<br>**3**. Izohli lug‘atni e’lon qilish. | 2021-yil may<br><br>2021-yil sentabr<br><br>2021-yil dekabr | Innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasining maxsus hisob raqami mablag‘lari | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi |
| **V. Sun’iy intellekt sohasidagi ilmiy ishlar va ishlanmalarning investitsion jozibadorligini shakllantirish** | | | | | |
| 15. | Sun’iy intellekt sohasida amaliy algoritmlar yozishda tadqiqotchilarni rag‘batlantirish maqsadida doimiy ravishda “xakaton”lar va tanlovlar o‘tkazish. | **1**. Tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha yillik jadvalni ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>**2**. Tadbirlarni o‘tkazish va ularni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish. | 2021-yil mart<br><br>2021-2022-yillar mobaynida | - | Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, vazirlik va idoralar |
| 16. | Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun maxsus huquqiy rejim doirasida | **1**. Loyiha-texnik hujjatini ishlab chiqish va uni belgilangan tartibda kelishish. | 2021-yil avgust | Ijrochilar mablag‘lari | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | tajriba-sinov loyihalarni amalga oshirish maqsadida maxsus ochiq maydoncha yaratish. | **2**. Dasturiy ta’minot va apparat-dasturiy komplekslari ishlab chiqaruvchi va integratorini aniqlash.<br>**3**. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va joriy etish. | 2021-yil oktabr<br>2022-yil may | | rivojlanish vazirligi, vazirlik va idoralar |
| 17. | Telekommunikatsiya, xavfsizlik va boshqa davlat hamda hududiy dasturlar doirasida yo‘nalishlardagi loyihalarda ishtirok etish uchun ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik markazlari (R&D) faoliyatini tashkil etish uchun talablarni o‘rnatish. | **1**. Ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda takliflar tayyorlash bo‘yicha ekspert guruh shakllantirish.<br>**2**. Tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish.<br>**3**. Normativ-huquqiy hujjat loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2021-yil fevral<br>2021-yil may<br>2021-yil iyun | Ijrochilar mablag‘lari | “O‘zeltexsanoat” uyushmasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Adliya vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| **VI. Mahalliy korxonalar va mutaxassislarning sun’iy intellekt sohasidagi axborot resurslari va bilimlardan foydalanish imkoniyatini ta’minlash** | | | | | |
| 18. | O‘zbekiston Respublikasi Ochiq davlat ma’lumotlari portali faoliyati doirasida sun’iy intellekt uchun raqamli ma’lumotlar platformasini yaratish, bunda shu jumladan quyidagilarni nazarda tutish:<br>barcha foydalanuvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratgan holda ochiq davlat ma’lumotlarini, integratsiya qilish talablarini va ulardan foydalanish to‘g‘risida ma’lumotlarni e’lon qilish;<br>sun’iy intellekt texnologiyalarini | **1**. Ochiq ma’lumotlar portali platformasida joylashtirish uchun ochiq ma’lumotlar va mas’ul tashkilotlar ro‘yxatini shakllantirish.<br>**2**. Sun’iy intellekt doirasida ma’lumotlar to‘plamini joylashtirish imkoniyatlarini yaratish uchun Ochiq ma’lumotlar portalini modernizatsiya qilish hamda ma’lumotlarni avtomatik tarzda kiritish va yuklab olishda integratsiyani ta’minlash.<br>**3**. Sun’iy intellekt sohasidagi loyihalarda foydalanish uchun Portal platformasida ma’lumotlar | 2021-yil mart<br>2021-yil iyul<br>2021-yil avgust | - | Davlat statistika qo‘mitasi, vazirlik va idoralar<br>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Statistika qo‘mitasi, vazirlik va idoralar<br>Vazirlik va idoralar |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | rivojlantirish doirasida ochiq davlat ma’lumotlaridan bemalol foydalanish imkoniyatini olish uchun ariza berish. | to‘plamini o‘z vaqtida (shu jumladan avtomatlashtirilgan) joylashtirish. | | | |
| **VII. Sun’iy intellekt va uni qo‘llash texnologiyalari sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish** | | | | | |
| 19. | Sun’iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan xalqaro hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot faoliyatini rivojlantirish. | **1.** Sun’iy intellekt sohasida xorijiy ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatini shakllantirish**.**<br>**2.** Ilmiy tadqiqotda hamkorlikni o‘rnatish imkoniyatlarini o‘rganish.<br>**3.** Tegishli xorijiy ilmiy-tadqiqot va oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni faollashtirish bo‘yicha “Yo‘l xarita”sini ishlab chiqish. | 2021-yil oktabr<br>2022-yil fevral<br>2022-yil mart | - | Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi |
| 20. | Hukumatning sun’iy intellektga tayyorlik indeksida (Government Artificial Intelligence Readiness Index) respublika pozitsiyasini yaxshilash choralarini ko‘rish. | **1**. Xorijiy tajribani o‘rganish va hukumatning sun’iy intellektga tayyorlik indeksi ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.<br>**2**. Mamlakat pozitsiyasini yaxshilash bo‘yicha maqsadli harakatlar dasturini ishlab chiqish.<br>**3**. Dastur loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2021-yil iyun<br>2021-yil avgust<br>2021-yil sentabr | - | Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Moliya vazirligi, vazirlik va idoralar |
| 21. | Sun’iy intellekt sohasida milliy va xorijiy oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot | Quyidagilarni nazarda tutuvchi sun’iy intellekt sohasidagi ilmiy tashkilotlarning | 2022-yil fevral | - | Innovatsion rivojlanish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Fanlar akademiyasi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | tashkilotlarining hamkorlikdagi tadqiqot loyihalari faolligini oshirish. | milliy va xorijiy oliy ta’lim va ilmiy muassasalari bilan 5 yillik hamkorlik rejasini ishlab chiqish:<br>iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimiga sun’iy intellektni joriy qilish bo‘yicha dolzarb mavzularni shakllantirish;<br>sun’iy intellekt sohasida tadqiqot loyihalarini moliyalashtirishda xususiy sektor ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish. | | | |
| 22. | Sun’iy intellekt sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borayotgan yosh olimlarni qisqa muddatli xorijiy ilmiy stajirovkalarga yuborish. | **1**. Sun’iy intellekt sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borayotgan yosh olimlar ro‘yxatini shakllantirish va tanlov asosida saralash.<br>**2**. Ilg‘or xorijiy ilmiy tashkilotlari va oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish.<br>**3**. Tanlov asosida saralash orqali yosh olimlarni maqsadli xorijiy ilmiy stajirovkalarga o‘zaro kelishuv asosida yuborish. | 2021-2022-yillar | Ijrochilar mablag‘lari | Innovatsion rivojlanish vazirligi, “El-yurt umidi” jamg‘armasi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi |
| 23. | Sun’iy intellekt sohasidagi yetakchi ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olish hamda ularning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash. | **1**. Sun’iy intellekt sohasida o‘qitish va tadqiqot faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash.<br>**2**. Yetakchi xorijiy ilmiy tashkilotlar va oliy ta’lim | 2021-yil aprel<br><br>2021-yil avgust | Ijrochilar mablag‘lari | “El-yurt umidi” jamg‘armasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Oliy va |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | muassasalari bilan aloqalar o‘rnatish.<br>**3**. Magistratura va doktoranturada o‘qish uchun ilmiy-tadqiqot faoliyati va ta’limning maqsadli dasturini shakllantirish.<br>**4**. Sun’iy intellekt sohasidagi xalqaro konferensiyalar, seminarlar, simpoziumlar va boshqa tadbirlar to‘g‘risida axborotlarni e’lon qilib borish. | 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab<br><br>Har yili | | o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi |
| 24. | Sun’iy intellekt sohasida xususiy sektorni keng jalb qilgan holda muntazam tarzda xalqaro ilmiy konferensiyalar va boshqa tadbirlarni tashkil etish. | **1**. “Sun’iy intellekt — texnologik rivojlanish asosi” shiori ostida axborot-texnologiyalari haftaligini o‘tkazish, shu jumladan oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar, Dasturiy mahsulot va axborot texnologiyalari texnologik parki rezidentlari o‘rtasida iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimi uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan tanlov tashkil etish.<br>**2**. 2021-yilda “Innoweek” innovatsion g‘oyalar haftaligi doirasida xorijiy kompaniyalar, xalqaro tashkilotlar va diplomatik vakolatxonalar, banklar, yirik ishlab chiqaruvchilar vakillari ishtirokida | 2021-yil oktabr-noyabr | Ijrochilar mablag‘lari, grantlar | Innovatsion rivojlanish vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Fanlar akademiyasi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Tashqi ishlar vazirligi, Markaziy bank, Savdo-sanoat palatasi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | “Sun’iy intellekt — texnologik rivojlanish asosi” mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etish.<br>**3**. Xalqaro konferensiya va boshqa tadbirlar o‘tkazish konsepsiyasi va dasturini ishlab chiqish.<br>**4**. Yetakchi xorijiy ekspertlar va mutaxassislar, kompaniya va boshqa muassasalarni jalb qilgan holda xalqaro konferensiya va tadbirlarni tashkil qilish. | 2021-yil dekabr<br>2022-yilda alohida reja asosida | | |

Izohlar:

1. Ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar va boshqa hujjatlar huquqiy munosabatlarni tartibga solish predmeti va sohasidan kelib chiqib birlashtirilishi mumkin.

2. Ikki va undan ortiq bandlar birlashtirilganda ushbu bandlar uchun belgilangan eng kech muddat ijro muddati etib belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qaroriga
2-ILOVA

## Sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha 2021-2022-yillarda amalga oshiriladigan tajriba-sinov loyihalar

RO‘YXATI

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmlari | Bajarish muddatlari | Moliyalashtirish manbalari | Mas’ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Yerni masofadan zondlash ma’lumotlari asosida tuproq va qishloq xo‘jaligi ekinlari holatini, shuningdek, qishloq xo‘jaligi texnikasi, shu jumladan kombaynlar ishini monitoring qilish jarayonida sun’iy | 1. Loyiha-texnik hujjatini ishlab chiqish va uni belgilangan tartibda kelishish.<br>2. Dasturiy ta’minot va apparat-dasturiy komplekslari ishlab chiqaruvchi va integratorini aniqlash. | 2021-yil may<br>2021-yil avgust | XMI va XHMT mablag‘lari va grantlar | Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, “O‘zbekkosmos” agentligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | intellekt texnologiyalarini qo‘llash. | 3. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va tajriba-sinov loyihasini joriy etish. | 2021-yil dekabr | | |
| 2. | Tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish va ular tomonidan tartibga solish talablari (SubTech va RegTech) bajarilishini soddalashtirish, shuningdek, bank xizmatlari ko‘rsatish sifatini tahlil qilish va kredit tavakkalchiliklarini baholash uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash. | 1. Xalqaro moliyaviy institutlar va konsalting kompaniyalari ko‘magida loyiha-texnik hujjatini ishlab chiqish va belgilangan tartibda kelishish.<br>2. Dasturiy ta’minot va apparat-dasturiy komplekslari ishlab chiqaruvchi va integratorini aniqlash.<br>3. Axborot tizimini ishlab chiqish va joriy etish. | 2021-yil dekabr<br>2022-yil yanvar<br>2022-yil noyabr | Ijrochilar mablag‘lari | Markaziy bank, tijorat banklari, Banklar assotsiatsiyasi |
| 4. | Yuridik shaxslarning soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq to‘lovlaridagi tafovutlarni aniqlashda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash. | 1. Loyiha-texnik hujjatini ishlab chiqish va uni belgilangan tartibda kelishish.<br>2. Dasturiy ta’minot va apparat-dasturiy komplekslari ishlab chiqaruvchi va integratorini aniqlash.<br>3. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va tajriba-sinov loyihasini joriy etish. | 2021-yil may<br>2021-yil iyun<br>2022-yil may | Ijrochilar mablag‘lari, grantlar va kreditlar | Davlat soliq qo‘mitasi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| 5. | Lokomotivlarni boshqarish jarayonida ularning harakatini kuzatib borish va xavfli | 1. Loyiha-texnik hujjatini ishlab chiqish va uni belgilangan tartibda kelishish. | 2021-yil iyun | Ijrochilar mablag‘lari | Transport vazirligi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ, “Toshshahar- |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | vaziyatlarda mashinistlarni ogohlantirishda, jamoat transporti harakatini tahlil qilish va ularning optimal yo‘nalishlarini aniqlashda, shuningdek, avtomobil harakatini va transportdagi tirbandliklarni monitoring qilishda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash. | 2. Dasturiy ta’minot va apparat-dasturiy komplekslari ishlab chiqaruvchi va integratorini aniqlash.<br>3. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va tajriba-sinov loyihasini joriy etish. | 2021-yil avgust<br>2021-yil dekabr | | transxizmat” AJ, Ichki ishlar vazirligi |
| 6. | Energiya resurslarini ishlab chiqarish va ularning iste’molini prognoz qilishda, texnologik uskunalar ishini optimallashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash. | 1. Loyiha-texnik hujjatini ishlab chiqish va uni belgilangan tartibda kelishish.<br>2. Dasturiy ta’minot va apparat-dasturiy komplekslari ishlab chiqaruvchi va integratorini aniqlash.<br>3. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va tajriba-sinov loyihasini joriy etish. | 2021-yil avgust<br>2021-yil oktabr<br>2022-yil aprel | Ijrochilar mablag‘lari va kreditlar | Energetika vazirligi, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ |
| 7. | Inson o‘pkasining kompyuter tomografiyasi tahlili asosida pnevmoniyani aniqlash hamda mammografiya tahlili asosida ko‘krak bezi saratoniga ilk bosqichda tashxis qo‘yish uchun | 1. Loyiha-texnik hujjatini ishlab chiqish va uni belgilangan tartibda kelishish.<br>2. Dasturiy ta’minot va apparat-dasturiy komplekslari ishlab chiqaruvchi va integratorini aniqlash. | 2021-yil avgust<br>2021-yil noyabr | Xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari grantlari, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar | Sog‘liqni saqlash vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash. | 3. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va tajriba-sinov loyihasini joriy etish. | 2021-yil dekabr | | |
| 8. | Bozorning dori vositalari va tibbiy buyumlariga bo‘lgan ehtiyojlarini tahlil qilish va prognozlashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash. | 1. Loyiha-texnik hujjatini ishlab chiqish va uni belgilangan tartibda kelishish.<br>2. Dasturiy ta’minot va apparat-dasturiy komplekslari ishlab chiqaruvchi va integratorini aniqlash.<br>3. Dasturiy ta’minotni ishlab chiqish va tajriba-sinov loyihasini joriy etish. | 2021-yil iyun<br>2021-yil iyul<br>2021-yil dekabr | Ijrochilar mablag‘lari | Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi, “Dori-Darmon” AK, Sog‘liqni saqlash vazirligi |
| 9. | Elektron davlat va moliya xizmatlarini ko‘rsatishda foydalanuvchilarni masofadan turib biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) uchun sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash. | 1. Loyiha-texnik hujjatini ishlab chiqish va uni belgilangan tartibda kelishish.<br>2. Dasturiy ta’minot va apparat-dasturiy komplekslari ishlab chiqaruvchi va integratorini aniqlash.<br>3. Biometrik ma’lumotlar bo‘yicha jismoniy shaxslarni identifikatsiya qilishning Yagona biometrik tizimi (YABT)ni ishlab chiqish va tajriba-sinov loyihasini joriy etish. | 2021-yil may<br>2021-yil iyun<br>2021-yil noyabr | Ijrochilar mablag‘lari | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Davlat personallashtirish markazi, AT “Aloqabank” |

## Sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma alyans

mlrd so‘m

| T/r | Tashkilot nomi | Ustuvor yo‘nalish | Summa* | Moliyalashtirish manbalari |
|---|---|---|---|---|
| 1. | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi | Sun’iy intellekt texnologiyalari va katta ma’lumotlar bilan ishlash uchun superkompyuter va “bulutli” platformalarni rivojlantirish | 15 | Budjet mablag‘lari doirasida, grantlar, kreditlar, budjetdan tashqari mablag‘lar |
| | Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi | | 15 | Budjet mablag‘lari doirasida, grantlar, kreditlar, budjetdan tashqari mablag‘lar |
| 2. | Innovatsion rivojlanish vazirligi | Nutqni aniqlashva sintezlash texnologiyalari, tabiiy tilga ishlov berish va sun’iy intellektning boshqa yo‘nalishlarini rivojlantirish | 15 | Budjet mablag‘lari doirasida, grantlar, kreditlar, budjetdan tashqari mablag‘lar |
| 3. | Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi | Boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qo‘llab-quvvatlashning intellektual texnologiyalarini rivojlantirish | 15 | Budjet mablag‘lari doirasida, grantlar, kreditlar, budjetdan tashqari mablag‘lar |
| 4. | Qishloq xo‘jaligi vazirligi | Yerni masofadan zondlash ma’lumotlari asosida tuproq va qishloq xo‘jaligi ekinlari ahvolini, shuningdek, global pozitsiyalash tizimlari ma’lumotlari asosida qishloq xo‘jaligi texnikasi, shu jumladan kombaynlar ishini monitoring qilish texnologiyalarini rivojlantirish | 20 | Budjet mablag‘lari doirasida, grantlar, kreditlar, budjetdan tashqari mablag‘lar |
| 5. | Energetika vazirligi | Ashyolar interneti intellektual texnologiyalarini rivojlantirish | 20 | Budjet mablag‘lari doirasida, grantlar, kreditlar, budjetdan tashqari mablag‘lar |
| 6. | Markaziy bank | Bank sohasida monitoring va tahlil qilish uchun intellektual texnologiyalarni rivojlantirish | 10 | O‘z mablag‘lari, grantlar, kreditlar |
| | AT “Aloqabank” | | 10 | O‘z mablag‘lari, grantlar, kreditlar |
| | “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki” AJ | | 20 | O‘z mablag‘lari, grantlar, kreditlar |
| 7. | “Olmaliq KMK” AJ | Sun’iy intellektdan foydalangan holda ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish | 20 | O‘z mablag‘lari, grantlar, kreditlar |
| | “Navoiy KMK” DK | | 20 | O‘z mablag‘lari, grantlar, kreditlar |
| | “O‘zavtosanoat” AJ | | 20 | O‘z mablag‘lari, grantlar, kreditlar |

| | |
|---|---|
| **Jami** | **200** |

* ajratilayotgan mablag‘larning summalariga amaldagi xarajatlardan kelib chiqib aniqlik kiritiladi.

Ajratilayotgan mablag‘lar mazkur tashkilotlarda sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilishga bevosita ushbu tashkilotlar tomonidan yo‘naltiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qaroriga
4-ILOVA

## Sun’iy intellekt sohasida loyihalarni amalga oshirish uchun ochiq shaklda taqdim etiladigan davlat ma’lumotlari

RO‘YXATI

| T/r | Raqamli ma’lumotlar nomi* | Mas’ul tashkilotlar |
|---|---|---|
| 1. | Iqlim va ob-havo sharoitlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar | Gidrometeorologiya xizmati markazi |
| 2. | Kompyuter tomografiyasi va monografiyasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar (shaxsiy identifikatsiyasiz) | Sog‘liqni saqlash vazirligi |
| 3. | Suv resurslari to‘g‘risidagi ma’lumotlar | Suv xo‘jaligi vazirligi |
| 4. | Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari, shu jumladan ularning konturlari va chegaralari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (shaxsiy identifikatsiyasiz) | Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Kadastr agentligi |
| 5. | Markirovkalangan alkogol va tamaki mahsulot to‘g‘risidagi ma’lumotlar | Davlat soliq qo‘mitasi |
| 6. | Sud qarorlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (shaxsiy identifikatsiyasiz) | Oliy sud |
| 7. | Nazorat kassa mashinalari orqali aholi bilan pul operatsiyalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (shaxsiy identifikatsiyasiz) | Davlat soliq qo‘mitasi |
| 8. | Jamoat transporti harakati to‘g‘risidagi ma’lumotlar** | Transport vazirligi |
| 9. | Jamoat transportida yo‘lovchilarning harakatlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar (shaxsiy identifikatsiyasiz)*** | Transport vazirligi |
| 10. | Ko‘chmas mulk, shu jumladan ularning konturlari va chegaralari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (shaxsiy identifikatsiyasiz) | Kadastr agentligi |
| 11. | Avtomototransport vositalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (shaxsiy identifikatsiyasiz) | Ichki ishlar vazirligi |
| 12. | Yo‘l-transport hodisalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (shaxsiy identifikatsiyasiz) | Ichki ishlar vazirligi |
| 13. | Ma’muriy-hududiy birliklar va manzillar to‘g‘risidagi ma’lumotlar | Kadastr agentligi |
| 14. | Tijorat banklarining muammoli kreditlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar (shaxsiy identifikatsiyasiz) | Markaziy bank, Kredit byurosi |

Izohlar:

* ma’lumotlar sun’iy intellekt sohasidagi loyihalarni amalga oshirishda foydalanish uchun raqamli ma’lumotlar platformasiga joylashtiriladi hamda real vaqt rejimida, shuningdek, qonun hujjatlari talablariga muvofiq shaxsiy identifikatsiyasiz shaklda yangilanadi;

** 2021-yil 1-sentabrdan boshlab — Toshkent shahri, 2022-yil 1-yanvardan boshlab — bosqichma-bosqich boshqa hududlar uchun;

*** 2021-yil 1-sentabrdan boshlab — Toshkent shahri, 2022-yil 1-yanvardan boshlab — Nukus shahri va viloyat markazlari, 2023-yil 1-yanvardan boshlab — O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlari uchun.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qaroriga
5-ILOVA

## 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab grant asosida “Sun’iy intellekt” yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash bosqichma-bosqich boshlanadigan oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tashkilotlar

RO‘YXATI

| T/r | Tashkilot nomi | Grant asosida qabul qilish parametrlari va o‘quv yilining boshlanishi | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Bakalavriat | O‘quv yili | Magistratura | O‘quv yili |
| 1. | Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti | 30 | 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab | 10 | 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab |
| 2. | Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti | 25 | 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab | 10 | 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab |
| 3. | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti | 25 | 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab | 5 | 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab |
| 4. | Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti | 20 | 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab | 5 | 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab |
| 5. | Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti* | - | - | 10* | 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab |
| **Jami** | | **100** | | **30** | |

Izoh: “Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasiga mazkur ro‘yxatga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqi beriladi.

* Tegishli oliy ta’lim muassasalari magistrantlarining magistrlik dissertatsiyalari ustidan ilmiy rahbarlikni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-son qaroriga
6-ILOVA

## Iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarini amaliy qo‘llash bo‘yicha o‘quv kurslari va fanlarini joriy qilish ko‘zda tutilgan oliy ta’lim muassasalar

RO‘YXATI

1. Andijon davlat tibbiyot instituti
2. Jizzax politexnika instituti
3. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
4. Farg‘ona politexnika instituti
5. Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
8. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
10. Toshkent davlat yuridik universiteti
11. “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
12. Toshkent davlat agrar universiteti
13. Toshkent tibbiyot akademiyasi

14. O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi
15. Ichki ishlar vazirligi akademiyasi